

Rossiya–O‘zbekiston madaniy ta’lim forumini yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi



Xabaringiz bor, Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganligining 30 yilligi nishonlanadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida Rossiya–O‘zbekiston madaniy ta’lim forumi o‘tkaziladi.




Bugun oliygoxda mazkur forumni mazmunli va professional tarzda tashkil etish bo'yicha yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda institut rahbariyati, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, o'qituvchi va murabbiylar hamda boshqa xodimlar ishtirok etdi.

Institut rektori, professor Ibrohim Yuldashev mazkur forumni aynan mazkur oliygoxda o'tkazish o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladi. Shu bilan birga, tadbirlarni mazmunli o'tkazish bo'yicha tuzilgan ishchi guruhning tayyorgarlik holati haqida hisobotlar tinglandi.



Qolaversa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi xalqaro tashkilotining Madaniyat va san'at ta'limi bo'yicha Jamoatchilik Kengashi a'zosi, professor Temur Rashidov tomonidan O'zDSMI delegatsiyasining Rossiya Federatsiyasi Moskva shahriga tashrifi hamda institut badiiy jamoasining Xalqaro teatr san'ati festivalidagi ishtiroki to'g'risida ma'lumot berildi.



Shuningdek, talabalar turar joyida istiqomat qiladigan yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar hamda ularning institut ichki tartib-qoidalariga qay darajada amal qilayotgani muhokama qilindi.



Yig'ilish so'ngida ishchi guruh xodimlariga tegishli topshiriq va vazifalar berildi.